

TARBIYA FANINI O'QITISHDA KLASTER TEXNOLOGIYASIDAN SAMARALI FOYDALANISH UCHUN QO'YILADIGAN METODIK TALABLAR

Madetbaeva Xurliman Sapargali kizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining 2-kurs magistranti

xurlimanmedetbaeva1998@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20475597>

***Annotatsiya.** Mazkur tezista tarbiya fanini o'qitishda klaster texnologiyasidan samarali foydalanishning metodik jihatlari yoritiladi. Klaster texnologiyasi o'quvchilarning bilimlarini tizimlashtirish, tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlarni aniqlash, mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan biri sifatida qaraladi. Tadqiqotda mazkur metodni qo'llashning didaktik imkoniyatlari, uning o'quvchilarning bilish faolligini oshirishdagi o'rni hamda o'quv materiallarini samarali o'zlashtirishga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, klaster texnologiyasidan foydalanishda maqsat va mazmunning mosligi, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, faol ishtirokni ta'minlash, tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishlarni mantiqiy tashkil etish va natijalarni tahlil qilish kabi metodik talablar asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari klaster texnologiyasini amaliyotga samarali tatbiq etish hamda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.*

***Kalit so'zlar:** klaster texnologiyasi, innovatsion ta'lim, interfaol metod, faol ishtirok, maqsat, mazmun, mantiqiy fikrlash, ta'lim samaradorligi, pedagogik texnologiyalar.*

Hozirgi globallashuv jarayonida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan eng muhim vazifalardan biri – o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Shu sababli ta'lim jarayonida an'anaviy o'qitish usullari bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Innovatsion yondashuvlar o'quv jarayonini faollashtirish, bilimlarni chuqur o'zlashtirish hamda ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shunday pedagogik texnologiyalardan biri klaster texnologiyasidir. Klaster usuli o'quvchilarga berilgan mavzu yuzasidan asosiy tushunchalarni aniqlash, ularni tarmoqlarga ajratish va o'zaro bog'liqligini ko'rsatish imkonini beradi. Ushbu texnologiya orqali o'quvchilar mavzuga doir bilimlarini tizimlashtiradi, fikrlarini erkin ifoda etadi hamda mantiqiy bog'lanishlarni mustaqil ravishda shakllantiradi.

Klaster texnologiyasidan samarali foydalanish uchun ma'lum metodik talablarga amal qilish zarur. Jumladan, mavzuning to'g'ri tanlanishi, markaziy g'oyaning aniq belgilanishi, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish hamda tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlarni to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur tezisdagi klaster texnologiyasining mazmun-mohiyati, uning ta'lim jarayonidagi o'rni hamda undan natijali foydalanishda qo'yiladigan metodik talablar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Klaster texnologiyasi ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilimlarini tizimlashtirish va ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali interfaol metodlardan biri hisoblanadi. Ushbu texnologiyadan natijali foydalanish ta'lim sifatini oshirishga bevosita ta'sir

ko'rsatadi. Klaster texnologiyasidan foydalanish jaroyanida, keltirilgan metodik talablar katta ahamiyatka ega.

Maqsat va mazmunning mosligi - mazkur metod o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ijodiy yondashuvini kuchaytirish va bilimlarni vizual ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan, mazmun jihatdan klaster texnologiyasi o'quv materialining murakkablik darajasi, hajmi va o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga mos bo'lishi lozim. Agar mazmun noto'g'ri tanlansa yoki ortiqcha murakkablashtirilsa, metod kutilgan natijani bermasligi mumkin.

Tushunchalarning ilmiy asoslanganligi — klaster tarkibiga kiritiladigan tushunchalar ilmiy jihatdan asoslangan, mavzuga muvofiq hamda pedagogik maqsadga xizmat qilishi lozim. Bu talab klasterning mantiqiy yaxlitligini saqlash, noto'g'ri yoki yuzaki bilimlar shakllanishining oldini olish hamda tarbiyaviy mazmunni to'g'ri talqin qilish imkoniyatini beradi.

Faol ishtirokni tashkil etish talabi - klaster texnologiyasi interaktiv faoliyatga asoslanganligi sababli, barcha o'quvchilarning jarayonda faol ishtirok etishini ta'minlash muhim metodik talab hisoblanadi. O'qituvchi klaster tuzish jarayonida har bir o'quvchining fikr bildirishiga imkoniyat yaratishi, guruhli ishlarda esa rollarni taqsimlash orqali guruh faolligini rag'batlantirishi zarur.

O'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olishdir. Klaster topshiriqlari o'quvchilarning bilim darajasi va psixologik imkoniyatlariga mos bo'lishi kerak. Aks holda metod kutilgan natijani bermasligi mumkin.

Bosqichma-bosqich va izchillik talabi - klaster texnologiyasi ma'lum bir algoritmik ketma-ketlik asosida qo'llanilgandagina natija beradi. Markaziy tushunchani aniqlab, fikrlarni to'plash, guruhlash, bog'liqliklarni tushuntirish va umumlashtirish kabi bosqichlarning izchil amalga oshirilishi klasterning metodik to'liqligini ta'minlaydi.

Ko'rgazmalilik va grafik aniqlik talabi - klasterning grafik tuzilishi oddiy, tushunarli va vizual jihatdan aniq bo'lishi kerak. Ortiqcha elementlar bilan murakkablashtirilgan klaster o'quv materialini qabul qilishni qiyinlashtiradi. Shuning uchun klasterning ko'rgazmaliligi va oddiyligi bilimlarni tez hamda samarali o'zlashtirishga xizmat qiluvchi metodik omil hisoblanadi.

Vaqtning to'g'ri tashkil etish talabi - klaster texnologiyasidan foydalanishda dars bosqichlari o'rtasida vaqtning to'g'ri taqsimlash talab etiladi. Motivatsiya bosqichida qisqa klaster, asosiy bosqichda kengaytirilgan klaster refleksiya bosqichida esa yakunlovchi klaster tuzish orqali o'quv faoliyatining izchilligi ta'minlanadi. Bu talab darsning samarali bo'lishiga xizmat qiladi.

Refleksiv tahlilni ta'minlash talabi - klaster faoliyati yakunida o'quv jarayoni natijalari tahlil qilinishi va refleksiya tashkil etilishi zarur. Darsning boshida va yakunida tuzilgan klasterlarni o'zaro solishtirish orqali o'quvchilarning bilimlaridagi o'zgarishlar aniqlanadi, bu esa o'z-o'zini baholash va shaxsiy rivojlanish jarayonini faollashtiradi.

Baholashning adolatliligi talabklaster faoliyatini baholash mezonlari oldindan belgilangan va o'quvchilarga tushunarli bo'lishi zarur. Adolatli baholash o'quvchilarning mas'uliyatini oshirib, ularning faol ishtirokini rag'batlantiradi hamda baholash jarayonining obyektivligini ta'minlaydi.

Umuman olganda, klaster texnologiyasi ta'lim jarayonida bilimlarni tizimlashtirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va o'quvchilarning ijodiy salohiyatini oshirishda muhim didaktik

vosita hisoblanadi. Uning samaradorligi esa metodik talablarning to'g'ri va izchil bajarilishiga bog'liqdir. Bu metodik talablar asosida tashkil etilgan klaster faoliyati tarbiya fanini o'qitish jarayonining interaktivligini oshirib, o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent.
2. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2018.
3. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent.
4. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.
5. Klarin M.V. Pedagogicheskie texnologii v uchebnom protsesse. – Moskva: Yuniti, 2019.